



OILADA TURMUSH O'RTOG'I (ALKOGOL) SPIRTLII ICHIMLIKKA RUJU QO'YGAN AYOL DOIMIY TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKKA UCHRAB KELMOQDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMIDAGI PSIXOLOG VA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI.

Bobomurodova Nasiba Mingnorovna

Surxondaryo viloyat Jarqo'rg'on tumani

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17138882>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada spirtli ichimlikka qaram bo'lgan shaxsning oiladagi xatti-harakatlari, ularning turmush o'rtog'i – ayolning ruhiy va jismoniy holatiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Zo'ravonlikka uchrayotgan ayollar uchun ijtimoiy himoya tizimidagi psixologik xizmatlarning o'rni, ularning huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilik, psixologlarning amaliy yondashuvlari hamda xalqaro tajribalar o'rganilgan. Shuningdek, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'ravonlik, spirtli ichimlikka qaramlik, psixologik yordam, ijtimoiy himoya tizimi, ayollar huquqlari.

Annotation:

This article analyzes the behavior of individuals addicted to alcohol within the family and its negative impact on the physical and psychological well-being of their spouses. The role of psychological services in the social protection system for women experiencing domestic violence is examined, along with legal and psychological support mechanisms. The paper also explores the legislation of the Republic of Uzbekistan, practical approaches of psychologists, and international experiences. Furthermore, proposals and recommendations are developed to prevent domestic violence.

Keywords: domestic violence, alcohol addiction, psychological support, social protection system, women's rights.

Аннотация:

В данной статье анализируется поведение человека, зависимого от алкогольных напитков, его негативное влияние на психическое и физическое состояние супруги. Рассматривается роль психологической службы в системе социальной защиты для женщин, подвергающихся домашнему насилию, а также правовые и психологические механизмы поддержки. В статье изучается законодательство Республики Узбекистан,



практические подходы психологов и международный опыт. Также разработаны предложения и рекомендации по профилактике семейного насилия.

Ключевые слова: семейное насилие, алкогольная зависимость, психологическая помощь, система социальной защиты, права женщин.

Bugungi kunda oilaviy zo'rvonlik jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ayniqsa spirtli ichimliklarga qaramlik oilada jiddiy ziddiyatlar va tazyiqlarga sabab bo'layotgani kuzatilmoqda. Afsuski, ko'plab oilalarda turmush o'rtog'ining spirtli ichimlikka mukkasidan ketishi ayol va farzandlar uchun katta fojia bo'lib, ularning ruhiy salomatligiga va kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ichkilikbozlik nafaqat jismoniy, balki ma'naviy zo'rvonlikning ham kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatda ayollar doimiy qo'rquv, tazyiq va ruhiy tushkunlik holatida yashashga majbur bo'lib, farzandlar ham o'zlarini xavfsiz his qilmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

"Oila – jamiyatning tayanchi. Agar oilada totuvlik, mehr-muhabbat bo'lmasa, jamiyatda ham barqarorlik bo'lmaydi". Shundan kelib chiqib, davlatimiz tomonidan oilani mustahkamlash, ayniqsa, zo'rvonlikka uchrayotgan ayollarga yordam berish bo'yicha qator huquqiy va ijtimoiy choralar amalga oshirilmoqda. Alkogolizmga ruju qo'ygan turmush o'rtog'ining salbiy xatti-harakatlari natijasida ko'plab ayollar ruhiy tushkunlikka tushib, o'z huquqlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda oilaviy zo'rvonlikka uchrayotgan ayollarning 35 foizdan ortig'ining turmush o'rtog'i alkogol yoki boshqa zararli odatlarga ruju qo'yg'anliklaridan dalolat bermoqda.

Shunday vaziyatlarda ijtimoiy himoya tizimidagi psixolog va psixologik xizmatlarning samarali faoliyati nihoyatda muhimdir. Chunki bu xizmatlar nafaqat ayollar va ularning farzandlarining ruhiy holatini tiklash, balki ularning huquqlarini himoya qilish, jamiyatga qayta moslashuvini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism

Spirtli ichimliklarga qaramlik va uning oilaga ta'siri.

Alkogolizm shaxsning ruhiy va jismoniy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning xatti-harakatlarida tajovuzkorlik, befarqlik va iqtisodiy, jismoniy, ruhiy zo'rvonlikni kuchaytiradi. Oilaviy munosabatlarda bunday holat moliyaviy qiyinchiliklar, psixologik bosim va janjallarning ko'payishiga olib keladi.





Spirтли ichimlikka ruju qo'ygan erkaklar ko'pincha o'z ayollari va farzandlariga nisbatan:

- jismoniy zo'ravonlik,
- ruhiy tazyiq,
- iqtisodiy nazorat kabi salbiy xatti-harakatlarni ko'rsatadi.

Buning natijasida ayollarda stress, o'ziga ishonchsizlik va hatto o'z joniga qasd qilish fikrlari paydo bo'lishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, oiladagi zo'ravonlik ayollar ruhiy kasalliklari sabablari orasida birinchi o'rinlardan birini egallaydi.

Ichkilikbozlik va oiladagi zo'ravonlikning salbiy oqibatlari.

Ichkilikka mukkasidan ketgan shaxsning ruhiy,iqtisodiy va jismoniy holati izdan chiqadi, u o'zini boshqara olmaydi, ko'pincha tajovuzkor bo'lib qoladi. Natijada:

Ayol va farzandlariga nisbatan doimiy tazyiq va zo'ravonlik kuchayadi. Ayolning huquqlari buziladi, u o'z fikrini ochiq ayta olmaydi, ruhiy tushkunlikka tushadi.

Farzandlar ruhiy aziyat chekadi. Bolalar otasining tajovuzkor xatti-harakatlarini ko'rib ulg'aygani sababli ularda ham ruhiy travmalar shakllanadi, kelajakda ular ham zo'ravonlikka moyil bo'lib qolish xavfi ortadi.

Oilaviy barqarorlik yo'qoladi. Uyda doimiy mojaro bo'lishi tufayli oilaviy mehr-oqibat susayadi, iqtisodiy ahvol ham yomonlashadi.

Jamiyatga salbiy ta'sir. Bir oiladagi muammo butun jamiyat barqarorligiga tahdid soladi, jinoyatchilik oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, ichkilikbozlik mavjud bo'lgan oilalarda farzandlarning 65 foizi ruhiy muammolarga duch keladi. Bu esa kelajak avlodning salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi.

Ijtimoiy himoya tizimida psixologning o'rni.

Ijtimoiy himoya tizimi oilaviy zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatishda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Bu tizimda psixologlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Zo'ravonlikka uchragan ayol bilan psixodagnostika olib borish;
- Ayolning ruhiy holatini tiklash uchun psixoterapevtik yordam ko'rsatish;
- Ayolning huquqlarini himoya qilish bo'yicha maslahatlar berish;
- Ayolni jamiyatga qayta moslashtirish va o'z-o'zini qadrlashini oshirish;
- Zo'ravon shaxs bilan korreksion ishlash, ya'ni ularning salbiy xatti-harakatlarini kamaytirish.

Davlat siyosati va ijtimoiy himoya tizimi.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.05.2024 yil qabul qilingan 175-sonli qarorida Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qo'ydagilar nazarda tutilgan.

«O'zbekiston — 2030» strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha amaliy tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash, zo'ravonlikdan aziyat chekkan shaxslarga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmat sifatini takomillashtirish, xotin-qizlarning huquqlari kafolatlarini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasining tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga «oila — mahalla — tuman va hudud» tamoyili asosida kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifi.

a) «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan xotin-qizlarga himoya orderi talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish tartibi joriy etiladi;

b) xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holati ichki ishlar organlari navbatchilik qismining «102» telefon raqamlariga kelib tushgan murojaatlar asosida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ro'yxatga olinadi;

v) tazyiq va zo'ravonlik holati yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida quyidagilar amalga oshiriladi. Xotin-qizlar faoli va mahalladagi profilaktika inspektori ishtirokida tazyiq va zo'ravonlikni sodir etgan shaxs bilan suhbat o'tkaziladi, profilaktika inspektori tomonidan himoya orderi rasmiylashtiriladi, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar va ularning voyaga etmagan farzandlari markaziy tuman (shahar) shifoxonalarining shoshilinch qabul bo'limlariga joylashtiriladi. Jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash uchun tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, xotin-qizlar hamda ularning voyaga etmagan farzandlari uch sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga "Birlamchi ko'mak xonalariga" joylashtiriladi, shoshilinch birinchi yordam, shu jumladan ruhiy, psixoterapevtik yordam ko'rsatiladi, shuningdek, yuqumli kasalliklar mavjudligi to'g'risida tahlillar o'tkaziladi. Shoshilinch qabul bo'limlarining birlamchi ko'mak xonalarida yordam olgan shaxslar mazkur bo'lim shifokorining xulosasi va himoya orderi asosida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq ariza talab etmagan holda hududiy markazlarga joylashtiriladi. Zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil





bo'lgan shaxsning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish ishlariga majburiy ravishda Milliy gvardiyaning inspektor-psixologlari ham jalb qilinadi. 2025 yil 1 yanvardan boshlab, ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning reestri yuritiladi. Shuningdek, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ayollar va bolalarga bepul psixologik maslahat berish, ularni qayta ijtimoiy hayotga moslashtirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu agentlikning asosiy vazifalaridan biri – jamiyatda ruhiy salomatlikni mustahkamlash va oilalarni qo'llab-quvvatlashdir.

Xulosa va takliflar.

Ichkilikbozlik va oiladagi zo'ravonlik nafaqat bir oilaning, balki butun jamiyatning muammosidir. Ayol va farzandlarning ruhiy salomatligini asrash – davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Prezidentimizning qarorlari va Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati ushbu muammoni hal qilishda muhim o'rin tutmoqda. Biroq jamiyatning o'zi ham bunday muammolarga befarq bo'lmasligi, har bir fuqaro oiladagi sog'lom muhitni ta'minlashga hissa qo'shishi zarur.

Maqola natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Spirtli ichimliklarga qaramlik oilaviy zo'ravonlikning eng asosiy sabablaridan biridir.
2. Ijtimoiy himoya tizimidagi psixologlar ayollar va ularni farzandlarini ruhiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda asosiy rol o'ynaydi.
3. Xalqaro tajribalarni o'rganib, O'zbekistonda psixologik xizmatlarni rivojlantirish zarur.

Tavsiyalar.

- Ayollar uchun maxsus ishonch telefonlari va onlayn psixologik xizmatlarni kengaytirish;
- Psixologlar uchun muntazam o'quv kurslari va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
- Jamiyatda alkogolizmning oldini olish bo'yicha profilaktik kampaniyalar o'tkazish;
- Oilaviy zo'ravonlik holatlarini aniqlashda mahalla va ijtimoiy xodimlarning hamkorligini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.05.2024 yil 175-sonli qarorida Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.
2. Uoker, L. E. 2016. Tazyiqqa uchragan ayol sindromi. Springer Publishing Company.





3. Stark, E. 2019. Majburiy nazorat: erkaklar ayollarni shaxsiy hayotda qanday qamrab oladi. Oxford University Press.
4. JSST va BMT Ayollar tashkiloti. 2022. Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha qo'llanma.
5. Berkowitz, A. D. (2020). Understanding and preventing domestic violence: A comprehensive approach. Routledge.

